BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA O‘QUVCHILARNING MUSTAQIL FIKRLARINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

Xidirova M.Q.,GDPI dotsent
xidirovamalohat848@gmail.com
Ergasheva O.,Mirzaobod tumani 22-maktab o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur tezisda boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning zamonaviy yo‘llari, ta’lim metodlari va pedagogik sharoitlari tahlil qilinadi. Shuningdek, mustaqil fikrlashni shakllantirishda interaktiv metodlarning o‘rni va o‘quvchilarning shaxsiy faolligini oshirish usullari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, mustaqil fikrlash, interaktiv metodlar, tanqidiy fikrlash, ijodiy topshiriqlar, o‘z-o‘zini baholash, savol-javob usuli, pedagogik texnologiya, shaxsiy faollik, muammoli vaziyatlar.

Аннотация. В данном тезисе анализируются современные пути развития навыков самостоятельного мышления учащихся на этапе начального образования, методы обучения и педагогические условия. Также будет освещена роль интерактивных методов в формировании самостоятельного мышления и методов повышения личностной активности учащихся.

Ключевые слова: начальное образование, самостоятельное мышление, интерактивные методы, критическое мышление, творческие задания, самооценка, вопросно-ответный метод, педагогическая технология, личностная активность, проблемные ситуации.

Abstract. This thesis analyzes modern ways of developing students’ independent thinking skills at the primary education stage, educational methods and pedagogical conditions. It also highlights the role of interactive methods in the formation of independent thinking and methods of increasing students’ personal activity.

Keywords: primary education, independent thinking, interactive methods, critical thinking, creative tasks, self-assessment, question-and-answer method, pedagogical technology, personal activity, problem situations.

Boshlang‘ich ta’lim davri bolalar tafakkurining shakllanishi va rivojlanishida nihoyatda muhim bosqich hisoblanadi. Aynan shu davrda o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish ularning keyingi bilim olish jarayoniga, shaxs sifatida kamol topishiga va jamiyatda faol ishtirok etishiga zamin yaratadi. Mustaqil fikrlovchi shaxs nafaqat o‘qituvchining bergan bilimini qayta ishlab, balki uni tahlil qilish, o‘z nuqtayi nazarini bildirish va mavjud muammolarga ijodiy yondashish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Shuning uchun boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning mustaqil fikrlarini shakllantirish va rivojlantirish uchun maxsus pedagogik yondashuvlar va metodlar qo‘llanilishi zarur.

Mustaqil fikrlash- bu shaxsning tashqi ko‘rsatmalarsiz, o‘z tajribasi va bilimlari asosida tahlil qilish, xulosa chiqarish, fikr bildirish va qaror qabul qilish qobilyatidir. Bu ko‘nikma o‘quvchining ijodkorligini , erkinligini va javobgarligini oshiradi.

Avvalo, mustaqil fikrlashni rivojlantirish uchun dars jarayonida o‘quvchilarga erkin savol-javob imkoniyatini yaratish muhimdir. O‘quvchilarga berilgan savollar ochiq shaklda bo‘lib, ularni faqat yodlangan javobni emas, balki o‘z fikrini ifodalashga undashi kerak. Misol uchun, "Nima deb o‘ylaysan?", "Seningcha bu vaziyatda qanday yechim topish mumkin?" kabi savollar o‘quvchilarni o‘z fikrini mustaqil tarzda shakllantirishga yo‘naltiradi. Shuningdek, muammoli vaziyatlar yaratish, turli muammolarni yechishga qaratilgan topshiriqlar berish ham bolalarda tahliliy va ijodiy tafakkurni rag‘batlantiradi.

O‘qituvchi o‘z darslarini shunday tashkil etishi kerakki, bunda har bir o‘quvchining fikri qadrlanadi va har bir o‘quvchi o‘zini erkin his qiladi. Buning uchun rag‘batlantiruvchi muhit yaratish muhim: o‘quvchilarning har qanday tashabbuslari va fikr bildirishlari qo‘llab-quvvatlanishi, hatto ularning javoblari to‘liq mukammal bo‘lmasa ham, ijobiy baholanishi kerak. O‘qituvchi o‘z fikrini asoslash, mulohaza yuritish, xulosaga kelish jarayonini o‘quvchilarga ochiq ko‘rsatib berishi zarur. Bunday metodik yondashuv o‘quvchilarga fikrlash jarayonining qanday kechishini o‘rganishga va asta-sekin o‘z mustaqil fikr yuritish malakalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu esa o‘quvchilarda o‘z fikrini aytishdan cho‘chimaydigan, dadil shaxs sifatida shakllanishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, mustaqil fikrlashni rivojlantirish uchun interfaol metodlardan, masalan, “Aqliy hujum” (brainstorming), “Klaster” texnikasi, “Insert” strategiyasi kabi usullardan foydalanish juda samarali hisoblanadi. Masalan, "Insert" usulida o‘quvchilar matnni o‘qib borarkan, o‘z fikrini belgilashadi: bilgan ma'lumoti uchun bir belgini, yangi ma'lumot uchun boshqa belgini, o‘ziga qiziqarli yoki bahsli tuyilgan joylar uchun alohida belgilar qo‘yishadi. Bu ularni o‘qigan ma'lumotni faollik bilan tahlil qilishga va shaxsiy munosabat bildirishga o‘rgatadi.

Yana bir muhim jihat — bolalarga tanlov erkinligini berishdir. Masalan, darsda bir nechta topshiriq variantlarini taklif qilish va o‘quvchining o‘ziga qaysi topshiriqni bajarishni tanlash imkonini berish ham mustaqil qaror qabul qilish va o‘z fikrini shakllantirishni rag‘batlantiradi. Tanlov imkoniyati bolalarning motivatsiyasini oshiradi va o‘z faoliyatlariga mas’uliyat bilan qarashlariga yordam beradi. Darsda ijodiy topshiriqlarga ko‘proq o‘rin berish ham yaxshi samara beradi. Hikoya tuzish, kichik insho yozish, rasm asosida voqea yaratish, kichik sahna ko‘rinishlarini sahnalashtirish kabi mashg‘ulotlar o‘quvchilarning tasavvurini kengaytirish va mustaqil tafakkurini rivojlantirishda samarali vosita bo‘ladi. Shuningdek, guruhlarda ishlash, jamoaviy muhokamalar tashkil etish ham o‘quvchilarning o‘zaro fikr almashish malakasini rivojlantirib, o‘z nuqtayi nazarini asoslashga o‘rgatadi.

Shuningdek, raqamli texnologiyalardan foydalanish ham mustaqil fikrlashni rivojlantirishda katta rol o‘ynaydi. Turli onlayn testlar, interaktiv mashqlar, raqamli hikoyalar yaratish imkoniyati o‘quvchilarda mustaqil izlanish va yangi bilimlarni o‘zlashtirish istagini kuchaytiradi va nihoyat, o‘quvchilarning mustaqil fikrlarini rivojlantirishda ota-onalar bilan hamkorlik ham muhim ahamiyatga ega. Ota-onalar farzandlariga o‘z fikrini erkin aytishga imkon berib, ularning fikrlarini tinglab va qadrlab, mustaqil qarorlar qabul qilishda ishonch bildirsa, bu bolalarning o‘ziga ishonchini va fikrlash madaniyatini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish uchun ochiq muloqot, ijodiy topshiriqlar, muammoli vaziyatlar, erkin fikr bildirishga imkon beruvchi muhit va o‘qituvchining to‘g‘ri yondashuvi asosiy omil hisoblanadi. Bunday tizimli ishlar natijasida o‘quvchilarda faqat bilim emas, balki o‘z fikriga ega, mustaqil qaror qabul qila oladigan, kelajakka ishonch bilan intiladigan shaxs tarbiyalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduqodirov A.A. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.

2. Jumaniyozova D.T. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020.

3. Vygotskiy L.S. Pedagogik psixologiya. – Moskva: Pedagogika, 1991.